<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirini inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AMALIY METODLAR ASOSIDA KOLLABORATIV VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH



Farsaxonova Mastura Jalol qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ORCID: 0009-0009-9033-8120

Annotatsiya: Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o'quvchilarda kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida guruhli ishlash, juftlikda muhokama, savol-javob, dialogik o'qish, bahs-munozara hamda rol o'yin kabi amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik kuzatuv, dars jarayonini tahlil qilish va o'quvchilarning og'zaki nutq faoliyatini baholashga asoslandi. Olingan natijalar amaliy metodlar o'quvchilarning birgalikda ishlash, fikr almashish, o'z nuqtai nazarini asoslash hamda tengdoshlarini tinglash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot xulosalari boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda amaliy va interfaol metodlardan tizimli foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi hamda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: interfaol yondashuv, guruhli faoliyat, muloqot madaniyati, hamkorlikda o'rganish, dialogik ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchisi, nutq faolligi, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article aims to determine the effectiveness of practical teaching methods in developing collaborative and communicative skills among primary school students during reading literacy lessons. The study employed group work, pair discussions, dialogic reading, question-and-answer techniques, debates, and role-playing activities. The research methodology was based on classroom observation, analysis of instructional processes, and evaluation of students' oral communication and collaborative engagement. The findings indicate that practical methods significantly enhance students' cooperation, communication skills, and social interaction. The results confirm that the systematic use of interactive approaches improves the overall effectiveness of reading literacy instruction and provides practical recommendations for primary school teachers.

Key words: interactive learning, cooperative activities, communication skills, dialogic approach, primary education, student engagement, teaching practice, learning effectiveness.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности формирования коллаборативных и коммуникативных навыков у учащихся начальных классов на основе практических методов обучения на уроках читательской грамотности. В ходе исследования использовались групповые и парные формы работы, диалогическое чтение, методы вопросов и ответов, ролевые игры и обсуждения. Методология исследования основана на педагогическом наблюдении, анализе учебного процесса и оценке устной речевой активности учащихся. Результаты исследования показали, что применение практических методов способствует развитию навыков совместной деятельности, устного общения и социальной активности обучающихся. Сделаны выводы о целесообразности систематического использования интерактивных методов в процессе обучения чтению в начальной школе.

Ключевые слова: интерактивное обучение, групповая работа, речевая активность, сотрудничество, диалогическое обучение, начальное образование, педагогическая практика, образовательная эффективность.

**KIRISH**

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayoni bilan bir qatorda ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda ^[1]. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda keyingi ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma va malakalar shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki muloqotga kirishish, o'z fikrini ifodalash hamda boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi ^[2].

Zamonaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu bois, o'qish savodxonligi darslarida an'anaviy, faqat o'qituvchi markazida tashkil etilgan yondashuvlar o'rniga o'quvchini faol muloqotga va hamkorlikka jalb etuvchi amaliy metodlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday metodlar orqali o'quvchilar birgalikda fikr yuritish, vazifalarni jamoa bo'lib bajarish hamda umumiy xulosaga kelishni o'rganadilar ^[3].

Xalqaro baholash dasturlari – PIRLS va PISA – o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashda matnni tushunish bilan bir qatorda uning mazmuni yuzasidan fikr almashish, muhokama qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlariga ham katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu talablar boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslarini kollaborativ va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. O'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida bir-birining fikrini tinglash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish hamda muloqot madaniyatini egallashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda amaliy metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirishi, ularning muloqotga kirishish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi ta'kidlanadi. Biroq boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida aynan amaliy metodlarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'ni yetarli darajada yoritilmagan. Aksariyat hollarda darslar matnni o'qish va qayta hikoyalash bilan cheklanib, o'quvchilarning o'zaro muloqoti va jamoaviy faoliyatiga kam e'tibor qaratiladi ^[12].

Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – o'qish savodxonligi darslarida guruhli ishlash, juftlikda muhokama, savol-javob, dialogik o'qish va rolli o'yin kabi amaliy metodlarning o'quvchilarning hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan amaliy tajriba asosida amaliy metodlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi hamda o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonida o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish, bilimni muloqot va hamkorlik asosida shakllantirish zarurligini ta'kidlamoqda. Ayniqsa, o'qish savodxonligi darslari ushbu jarayon uchun qulay didaktik muhit hisoblanadi.

Jahon pedagogik adabiyotlarida dialogik va kollaborativ o'qitish nazariyalari mazkur masalaning asosiy nazariy poydevorini tashkil etadi. Robin Alexander dialogik ta'lim konsepsiyasida sinfdagi og'zaki muloqotni bilim hosil qilishning markaziy vositasi sifatida talqin qiladi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, savol-javob, muhokama va birgalikda xulosa chiqarishga asoslangan darslar o'quvchilarning fikrni ifodalash, asoslash hamda boshqalar fikrini tinglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Dialogik yondashuv ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi ^[4].

Mercer va Littleton tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kollaborativ o'rganish jarayonida tashkil etiladigan "hamkorlikdagi suhbat" (exploratory talk) o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Mualliflar guruhda ishlash, fikr almashish va umumiy yechimga kelish jarayonlari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va nutq faolligini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'qish savodxonligi darslarida matn mazmunini birgalikda tahlil qilish va muhokama qilish orqali samarali natija beradi ^[5].

O'qish savodxonligini baholashga oid xalqaro tadqiqotlar ham kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalarning muhimligini ko'rsatadi. Mullis va Martin tomonidan ishlab chiqilgan PIRLS tadqiqotlarida o'quvchilarning matnni o'qib tushunishi bilan bir qatorda uning mazmuni yuzasidan fikr bildirish, izohlash va baholash qobiliyatlari asosiy mezon sifatida belgilanadi. PIRLS talablari o'qish savodxonligini faqat texnik o'qish emas, balki muloqotga asoslangan kognitiv faoliyat sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi ^[6].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinf o'qish darslarida interfaol va amaliy metodlardan foydalanish masalasi keng yoritilgan. Qalandarova boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda savol-javob, suhbat va muhokama metodlarining ahamiyatini ta'kidlab, ushbu usullar orqali o'quvchi-



larning mustaqil fikrlashi va nutq faolligi oshishini ko'rsatadi. Uning ishlarida o'qish savodxonligi kommunikativ faoliyat bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi ^[7].

Mirzoyeva o'z tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Muallif matn asosida savol tuzish, fikr bildirish va izohlashga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki nutqini faollashtirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv o'qish savodxonligi darslarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi ^[8].

Musayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa boshlang'ich ta'limda interfaol va kollaborativ metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Muallif guruhli ishlash, rolli o'yinlar va muammoli topshiriqlar orqali o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va umumiy qarorga kelish ko'nikmalari shakllanishini ta'kidlaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va dars jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi ^[9].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni umumiy pedagogik jarayon doirasida o'rganib, ularni aynan boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar orqali shakllantirish masalasini yetarli darajada tizimli tahlil qilmagan. Ayniqsa, guruhli ishlash, dialogik o'qish va amaliy topshiriqlarning o'qish savodxonligi bilan uzviy bog'liqligi bo'yicha empirik tadqiqotlar kam uchraydi ^[10].

Mazkur holat ushbu tadqiqotda o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish masalasini alohida ilmiy muammo sifatida o'rganish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o'quvchilarning kollaborativ (hamkorlikda ishlash) va kommunikativ (muloqotga kirishish) ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot amaliy-pedagogik yo'naltirilgan bo'lib, real dars jarayonida o'tkazilgan kuzatuv va tahlillar asosida olib borildi.

Tadqiqot sifatli pedagogik tajriba-kuzatuv dizayni asosida tashkil etildi. Unda o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning muloqot faolligi va hamkorlik darajasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida an'anaviy darslar hamda amaliy metodlar asosida tashkil etilgan darslar solishtirma tarzda o'rganildi.

Ishtirokchilar. Tadqiqotda Jizzax Shahar 2-umumta'lim maktabining 4 "E"-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. O'quvchilar yosh xususiyatlari, o'qish savodxonligi darajasi va ta'lim muhiti jihatidan bir xil sharoitda ta'lim olayotgan bo'lib, tadqiqot tabiiy o'quv jarayoniga aralashmagan holda olib borildi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki va o'zaro muloqoti asosiy kuzatuv obyekti sifatida belgilandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan amaliy metodlar. Tadqiqot jarayonida o'qish savodxonligi darslarida quyidagi amaliy metodlar tizimli ravishda qo'llanildi:

1. **Guruhli ishlash metodi** – o'quvchilar kichik guruhlarda matn mazmunini muhokama qilib, umumiy xulosaga keldilar. Ushbu metod o'quvchilarning jamoada ishlash va bir-birini tinglash ko'nikmalarini rivojlantirdi.
2. **Juftlikda ishlash metodi** – ikki o'quvchi o'rtasida savol-javob va fikr almashish tashkil etildi. Bu metod o'quvchilarning erkin muloqotga kirishishi va o'z fikrini ifodalashiga yordam berdi.
3. **Dialogik o'qish metodi** – matnni o'qish jarayoni savollar, izohlar va muhokamalar bilan birga olib borildi. O'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglab, fikr bildirishda faol ishtirok etdilar.
4. **Savol-javob metodi** – o'quvchilar matn asosida ochiq va muammoli savollar tuzib, ularga javob berdilar. Bu metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi.
5. **Munozara (bahs-munozara) metodi** – matndagi voqea va g'oyalar yuzasidan turli nuqtai nazarlar bildirildi va solishtirildi. O'quvchilar o'z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rgandilar.
6. **Rolli o'yin metodi** – matndagi vaziyatlar va qahramonlar harakati sahnalashtirildi. Bu metod o'quvchilarning nutq faolligi, ijodkorligi va tasavvurini oshirdi.
7. **Amaliy topshiriqlar metodi** – matn asosida hikoya tuzish, rasm chizish va qisqa xulosalar chiqarish kabi topshiriqlar bajarildi. Ushbu topshiriqlar o'qilgan materialni amalda qo'llashga imkon yaratdi^[11].



TADQIQOT JARAYONI

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Tayyorlov bosqichi** – o'quvchilarning dastlabki o'qish savodxonligi darajasi va muloqot faolligi kuzatildi.
2. **Asosiy bosqich** – o'qish savodxonligi darslari amaliy metodlar asosida tashkil etildi va o'quvchilarning kollaborativ hamda kommunikativ faoliyati muntazam kuzatildi.
3. **Yakuniy bosqich** – kuzatuv natijalari umumlashtirilib, amaliy metodlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish

Ma'lumotlar dars jarayonini kuzatish, o'quvchilarning og'zaki javoblarini tahlil qilish, hamda guruh va juftlikdagi hamkorlik darajasini baholash orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar tavsifiy tahlil asosida umumlashtirilib, amaliy metodlarning o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalariga ta'siri aniqlab berildi.

Dars ishlanmasi

Fan: O'qish savodxonligi

Sinf: 4-sinf

Mavzu: O'tkir Hoshimovning "Temir qoziq" hikoyasi

Dars turi: Amaliy-interfaol

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Darsning maqsadi

Ta'limiy:

- Hikoya mazmunini tushunish va tahlil qilish;
- Qahramonlar xatti-harakatiga baho berish.

Tarbiyaviy:

- Halollik, mas'uliyat va ota-ona nasihatining ahamiyatini anglash.

Rivojlantiruvchi:

- Kommunikativ ko'nikmalar: fikr bildirish, savol berish, javobni asoslash;
- Kollaborativ ko'nikmalar: guruhda ishlash, kelishuvga kelish, umumiy xulosa chiqarish.

Darsda qo'llaniladigan metodlar

- Guruhda ishlash
- Savol-javob
- Rolli o'yin
- Bahs-munozara
- Qayta hikoyalash

Dars jihozlari

- Darslik
- Kartochkalar
- Doska va marker

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism (5 daqiqa)

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash

Kommunikativ topshiriq:

O'qituvchi savol beradi:

– Agar siz bironing buyumini topib olsangiz, nima qilardingiz?

O'quvchilar o'z fikrlarini erkin aytadilar.


II. Yangi mavzuga kirish (5 daqiqa)

- O'qituvchi O'tkir Hoshimov haqida qisqacha ma'lumot beradi.
- "Temir qoziq" hikoyasi nomi doskaga yoziladi.

Amaliy savol:

– Nega hikoya "Temir qoziq" deb nomlangan deb o'ylaysiz?

III. Hikoyani o'qish va tushunish (10 daqiqa)

- Hikoya bo'limlarga bo'lib o'qiladi.
- Har bo'limdan so'ng qisqa savollar beriladi.

Kommunikativ topshiriq:

– Hikoya qaysi bola tilidan aytilgan?

– Siz o'zingizni qahramon o'rnida tasavvur qildingizmi?

IV. Guruhlarda ishlash (kollaborativ metod) (10 daqiqa)

Sinf 3 guruhga bo'linadi.

1-guruh: Hikoyani 3 qismga bo'lib, har bir qismga sarlavha qo'yadi.

2-guruh: Qahramonlarga tavsif beradi (bola, ota, ona).

3-guruh: Hikoyadan olinadigan ibratlarni yozadi.

Guruhlar ishini taqdim etadi.

O'quvchilar bir-birining fikrini tinglaydi va to'ldiradi.

V. Rolli o'yin (kommunikativ + amaliy) (7 daqiqa)

O'quvchilar ota, bola va ona rollarini ijro etadi.

Hikoyadagi voqea sahnalashtiriladi.

Topshiriq:

– Har bir rol o'z fikrini aytsin.

VI. Bahs-munozara (tanqidiy fikrlash) (5 daqiqa)

Savol:

– Otaning qilgan ishi to'g'rimi?

O'quvchilar "Ha" yoki "Yo'q" deb javob berib, sababini aytadi.

VII. Mustahkamlash (3 daqiqa)

Ijodiy topshiriq (kommunikativ):

– Hikoyani ota yoki ona tilidan qisqacha qayta hikoya qiling.

VIII. Yakuniy qism (5 daqiqa)

Xulosa:

- Halollik – eng katta boylik ekanligi ta'kidlanadi.
- Ota-onasi nasihatiga quloq solish kerakligi aytiladi.

Baholash:

- Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa:

– "Halollik nima?" mavzusida 5–6 gapdan iborat og'zaki hikoya tuzish[12].

Kutilayotgan natija

Dars yakunida o'quvchilar:

- hikoya mazmunini tushunadi;
- guruhda ishlashni o'rganadi;
- o'z fikrini erkin ifodalay oladi;
- halollik va mas'uliyat haqida xulosa chiqaradi (1-rasm).



1-rasm: Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi darsida kollaborativ ta'lim

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Tahlil jarayonida dars kuzatuvlari, o'quvchilarning og'zaki javoblari, guruhli va juftlikdagi faol ishtiroki hamda umumiy dars jarayonidagi faolligi asosiy mezon sifatida olindi.

Kollaborativ ko'nikmalar bo'yicha natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, guruhli va juftlikda ishlashga asoslangan amaliy metodlar o'quvchilarning hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini sezilarli darajada faollashtirdi. Guruhli ishlash jarayonida o'quvchilar vazifalarni taqsimlash, bir-biriga yordam berish va umumiy xulosaga kelishga intildilar. Avvalroq kam ishtirok etgan o'quvchilar ham guruh ishlarida o'z fikrini bildirib boshladilar. Juftlikda ishlash metodidan foydalanilganda o'quvchilar o'zaro muloqotga faolroq kirishib, savollar berish va javoblarni muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirdilar. Ushbu jarayon o'quvchilarda tengdoshlari bilan ishlashga bo'lgan ishonchni oshirdi hamda dars jarayonidagi ijtimoiy faollikni kuchaytirdi.

Kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha natijalar. Dialogik o'qish, savol-javob va munozara metodlari o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. O'quvchilar matn asosida savollar tuzish, o'z fikrini izohlash va boshqalarning fikriga munosabat bildirishda faol ishtirok etdilar. Dars jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi ravonlashgani, gaplarni mantiqiy izchillikda bayon etishga intilgani kuzatildi. Munozara jarayonlarida o'quvchilar turli nuqtai nazarlarni solishtirib, o'z fikrini asoslashga harakat qildilar. Bu holat o'quvchilarda tinglash madaniyati, muloqotda hurmat va sabr-toqat kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalar shakllanayotganini ko'rsatdi.

Amaliy metodlarning dars jarayoniga ta'siri. Rolli o'yin va amaliy topshiriqlar metodlari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Matndagi vaziyatlarni jonlantirish jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etib, o'z tasavvuriga tayangan holda fikr bildirdilar va nutq faolligini namoyon etdilar. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglab, uni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga harakat qildilar. Amaliy topshiriqlar, xususan hikoya tuzish va qisqa xulosa chiqarish mashqlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirdi. O'quvchilar o'qilgan matn asosida o'z fikrini erkin ifodalashga hamda sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga intildilar.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatdiki, amaliy metodlar asosida tashkil etilgan o'qish savodxonligi darslari an'anaviy darslarga nisbatan samaraliroq bo'ldi. O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshdi, ular o'zaro muloqotga kirishishga va hamkorlikda ishlashga ko'proq intildilar. Ayniqsa, kommunikativ va kollaborativ ko'nikmalar o'quvchilarning kundalik nutqiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shu tariqa, tadqiqot natijalari o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan foydalanish o'quvchilarning hamkorlikda ishlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish savodxonligi darslarini faol, muloqotga asoslangan va hamkorlikni talab etuvchi metodlar orqali tashkil etish o'quvchilarning nafaqat matnni tushunish darajasini, balki ularning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Amaliy metodlar – guruhli va juftlikda ishlash, dialogik o'qish, savol-javob, munozara, rolli o'yinlar hamda amaliy topshiriqlar – o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirdi, ularni o'z fikrini erkin ifodalashga va tengdoshlari bilan samarali muloqotga kirishishga undadi. Tadqiqot davomida o'quvchilar o'rtasida hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash va umumiy xulosaga kelish ko'nikmalarining bosqichma-bosqich shakllanib borgani kuzatildi.

Shuningdek, dialogik o'qish va munozara metodlari o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirib, ularning og'zaki nutqi ravonlashishiga hamda fikrni mantiqiy izchillikda bayon etishiga yordam berdi. Rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'qish savodxonligini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini yaratdi. Ushbu holatlar amaliy metodlarning boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida an'anaviy yondashuv bilan cheklanmasdan, amaliy va interfaol metodlardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.
2. Dars jarayonida guruhli va juftlikda ishlash elementlarini ko'paytirish orqali o'quvchilarda kollaborativ ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.
3. Dialogik o'qish va munozara metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning fikr bildirish, savol berish va muloqotga kirishish madaniyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.
4. O'qish savodxonligi darslarini rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar bilan boyitish o'quvchilarning nutq faolligi va darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy metodlarga asoslangan metodik tavsiyalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarini samarali shakllantirib, ularni faol, mustaqil va muloqotga tayyor shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotida keng qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim metodik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5712-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021.
3. O'qish savodxonligi fan dasturi (1–4-sinflar uchun). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
4. Alexander R. Dialogic Teaching: Rethinking Classroom Talk. – 5th ed. – York: Dialogos, 2020. – 336 p.
5. Mercer N., Littleton K. Dialogue and the Development of Children's Thinking. – London: Routledge, 2007. – 216 p.
6. Mullis I. V. S., Martin M. O. PIRLS 2021 Assessment Framework. – Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021. – 280 p. URL: <https://timssandpirls.bc.edu>
7. Qalandarova I. H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi: monografiya. – Toshkent: Fan, 2022. – 180 b.
8. Mirzoyeva N. A. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish // Pedagogik ta'lim. – 2023. – №4. – B. 45–49.
9. Musayeva D. Sh. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati // Ta'lim va innovatsiya. – 2021. – №2. – B. 66–70.
10. Abduqodirova G. T. Boshlang'ich sinflarda kollaborativ ta'limni tashkil etish metodikasi // Boshlang'ich ta'lim. – 2022. – №3. – B. 21–25.
11. Raximov B. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 192 b.
12. Aydarova U., Azizova N. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktabining 4-sinfi uchun darslik. IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – B. 62–65.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.